

INSONNING YUKSAK MA'NAVIY UYG'UNLIKKA ERISHISHIDA ISHONCH, E'TIQOD VA IMON TUSHUNCHALARINING O'RNI

*Eronov Samarbek Qurbonnazarovich, ToshDTU Olmaliq filiali,
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrasi katta
o'qituvchisi*

THE ROLE OF TRUST, BELIEFS AND CONCEPTS OF FAITH IN ACHIEVING HIGH SPIRITUAL HARMONY

*Eronov Samarbek Kurbonnazarovich Senior lecturer at the
Department of Social Sciences and Humanities and Physical
Education of the Almalyk branch of the Tashkent State Technical
University*

РОЛЬ ДОВЕРИЯ, УБЕЖДЕНИЙ И ПОНЯТИЯ ВЕРЫ В ДОСТИЖЕНИИ ВЫСОКОЙ ДУХОВНОЙ ГАРМОНИИ

*Эронов Самарбек Курбонназарович, старший
преподаватель кафедры Социально-гуманитарных наук и
физического воспитания Алмалыкского филиала ТашГТУ*



<https://orcid.org/0009-0003-5573-181>

e-mail:
Samarbekerov8@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda bu masalaga e'tibor ortib borayotganining boisi shundaki, inson, ayniqsa, yoshlar uchun g'oyat zarur bo'lgan mafkuraviy immunitetning shakllanishida undagi imon-e'tiqod muhim ahamiyat kasb etadi. Agar biz yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarash asoslarini shakllantira olsak, ular ma'naviyati boy, mustaqil fikrli va olijanob shaxslar bo'lib kamolga yetadi. Shu bois ushbu maqolada yoshlarning yuksak ma'naviy uyg'unlikka erishishida ishonch, e'tiqod va imon tushunchalarining o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, e'tiqod, ishonch, fikr, tafakkur, idrok, xotira, xatti-harakat, endopsixika, ekzopsixika, psixik holat, iroda.

Abstract: Today, the reason for the increasing attention to this issue is that faith plays an important role in the formation of ideological immunity, which is extremely necessary for a person, especially young people. If we can form the foundations of healthy beliefs and a high worldview in our young people from childhood, they will grow up to be spiritually rich, independent-minded and noble individuals. Therefore, this article highlights the role of the concepts of trust, belief and faith in the achievement of high spiritual harmony among young people.

Key words: personality, belief, thought, thinking, perception, memory, behavior, endopsychic, exopsychic, mental state, will.

Аннотация: Сегодня причиной обращения внимания на этот вопрос является то, что большое значение в профессии имеет идеологический иммунитет, который крайне необходим человеку, особенно молодежи. Если мы сможем сформировать в юности после детства основы здоровых убеждений и высокого мировоззрения, они вырастут духовно богатыми, независимыми и благородными личностями. Поэтому в данной статье подчеркивается роль элементов веры в высокой духовной гармонии молодежи.

Ключевые слова: личность, вера, доверие, мнение, мышление, восприятие, память, движение, эндопсихика, экзопсихика, психическое состояние, воля.

KIRISH. Bugun yurtimizda e'tiqod erkinligi, haqiqiy milliy qadriyatlar, ulardagi diniylik va dunyoviylik nisbati qanday bo'lishi lozimligi to'g'risida turli-tuman fikrlar bildirilmoqda. O'zligini anglab etgan shaxs borki, uni qurshab turgan nima-gadir qattiq ishonishi va e'tiqod qilishi tabiiy holdir.

Insoniyatni boshqa jonzoatlardan farqlab turuvchi omillardan biri ham u nimanidir muqaddas deb tan olishi va ongli ravishda e'tiqodini yo'naltirishidir desak xato bo'lmaydi. Inson o'z oldiga maqsad qo'yib, uning samarali amalga oshirilishiga ishonib, harakat qilsagina yuksak natijalarga erisha oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Ishonch – insonning aql-zakovati, kuch-qudrati, erkinligi va qobiliyatini oshiradigan ijobiy tuyg'u. Ishonch – insonning ertangi kunga bo'lgan ishtiyoqini oshiradigan hodisa, kelajakka ishonish, yaqinlariga ishonish, dinga ishonch va h.k. Ishonch umid bilan boshlanadi. Ishonch insonning maqsadiga, dunyoqarashining hayot bilan bog'lanishiga aniq ishonchdan kelib chiqadi. Bu insonning real harakatlari va tajribasiga bog'liq.

“Imon” so'zi maqsadga erishishda ishonch va e'tiqod ma'nosida ham ishlatiladi. “E'tiqod” so'zi esa arabcha “i'taqada” fe'lidan olingan bo'lib, “ishonch”, “komil ishonch”, “imon”, “imonli bo'lish” ma'nolarini anglatadi¹[1]. E'tiqod sog'lom mantiqqa asoslanadi. Bu imonni mustahkamlaydi. Chunki ishonch juda kuchli va ishonchli bo'lsagina u e'tiqodga aylanadi. Shu boisdan ham N.G.Chernishevskiy “Tirik jon kuchli e'tiqodga ega bo'lmasligi mumkin emas... E'tiqodsiz kishilargina e'tiqodni amalga oshira olmaydilar; kaltafahm odamlar yoki vijdonsiz odamlargina e'tiqodsiz bo'ladilar”²[2] deb ta'kidlaydi. E'tiqodsiz ma'naviyat bo'lmaydi. E'tiqod ma'naviyatning eng asosiy ustunlaridan biridir. U ma'naviyatga mushtaraklik va jipslik bag'ishlaydi. Uning turli tarkibiy qismlarini o'zaro birlashtiradi hamda ma'naviyatni amaliyotga bog'laydi. E'tiqod ma'naviyatning mohiyatini ochib beruvchi tushunchalardan biridir³ [3]. Insonning barcha tuyg'ulari, kechinmalari yoki barcha amal

qiladigan g'oyalari, me'yorlari va qarashlari ma'naviyat bo'lib qolavermaydi. Tuyg'u-lar orasida nafs va hirs, jahl va qiziqqonlik tufayli yu-zaga kelganlari, tushunchalar, g'oyalar, baholar, fikr-mulohazalar, xulosalar orasida ilmsizlik, adashish, xato, noto'g'ri axborot sababli vujudga kelganlari bo'lishi mumkin. Jaholat, zolimlik, odob-axloq qoidalariga rioya qilmaslik, nafs va hirs qutqusiga berilish, zo'rvonlik orqali hammani bir xil o'ylashga, bir xil yashashga majburlash ma'naviyatsizlikdir.

MUHOKAMA. Har qanday adolatpesha jamiyat, u dunyoviy bo'ladimi yoki diniy, qat'i nazar, o'z a'zolarini halol, to'g'riso'z, odob-axloqli, imon-e'tiqodli etib tarbiyalashni xohlaydi. Aslida, e'tiqod diniy ham, dunyoviy ham bo'lishi mumkin. Diniy e'tiqod g'ayritabiiy kuchlar va hodisalarga ishonish, sig'inish orqali shakllansa, e'tiqodning dunyoviy ko'rinishi esa insonni o'rab turuvchi obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni hissiy tajriba va ilmiy bilish asosida shakllanadi.

Ishonch – bu inson psixikasining alohida holati bo'lib, u o'zida ma'lum bir ma'lumotni, hodisalarni, fikr va qarashlarni, fikrlarni shubhasiz qabul qilishi va tan olishda yaqqol namoyon bo'ladi. Ishonch – bu ma'lum tushunchalar bo'yicha inson ehtiyojlarini qondirish tizimidir. Inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dunyoqarash, tabiat va jamiyat qonunlarini tushunish, hayotiy tajriba asosida harakat qiladi. Insonning halolligiga ishonish va hurmat qilish odobidandir. Xuddi shunday, butun dunyoning yaxshiligini o'ylash insonning shaxsiy qiyofasidir. O'z-o'ziga ishonch – bu da'volar darajasi (harakat maqsadi) birlashtirilgan, da'volar darajasini amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishish uchun mo'ljallangan integral hissiy-intellektual holat, unga erishish ehtimolining optimal darajasi bilan ongda aks etadi. Bunday ishonch insonni o'ziga xos qobiliyati, tayyorligi, zahiraviy bilimlari, shart-sharoitlari va psixomotor faoliyatning ichki tahliliga asoslangan harakat maqsadi, natijada harakat va faoliyatning real sharoitlarida maqsadni (muvaffaqiyatni) amalga oshirishni belgilaydi. O'ziga

¹ Ан-Наъим. Арабча-ўзбекча луғат. –Тошкент: 2003. 552-бет.

² Қаранг: Тафаккур гулшани: Ватанимиз ва хорижий муаллифларнинг афоризмлари ва ҳикматли сўзлари / Вл. Воронцов композицияси; Ш. Абдураззоқова тарж. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 126.

³ Абдурахим Эркаев. Маънавият ва тараққиёт. – Тошкент: “Маънавият”, 2009. –Б. 22.

ishonchni bunday tushunish o‘zi-ga ishonch hissiyotlari doimo inson psixikasining intellektual va irodaviy ko‘rinishlari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Iшонchning intellektual xususiyatlariga o‘z imkoniyatlarini tahlil qilish va baholash, harakat maqsadini amalga oshirish shartlarini baholash, harakat maqsadini belgilash kiradi. Irodaviy xususiyatlarga qiyin sharoitlarda maqsadni saqlash, harakat maqsadiga erishish uchun psixomotor faollikni yuqori darajada ushlab turish kiradi.

“Imon”ning ma’nosi tasdiq etish, ishonishdir. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga Alloh taolo tomonidan yetkazilgan barcha narsalarni dil bilan tasdiqlab, ularga til bilan iqror bo‘lish “imон” deyiladi. Imon bunday izhor qilinadi: “Ashhadu allaa ilaaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan-‘abduhu va rosuluh” (ya’ni “Guvohlik beramanki, Alloh taolodan o‘zga iloh yo‘qdir va guvohlik beramanki, Muhammad alayhissalom Uning bandasi va rasulidir). Kim bu kalimani tili bilan aytib, dili bilan uning ma’nosini tasdiq va qabul qilsa, ya’ni Alloh taolo yagona sig‘iniladigan Zotdir, Undan o‘zga sig‘inishga loyiq hech mavjudot yo‘q, Muhammad alayhissalom Alloh taoloning bandasi va rasulidir, Muhammad alayhissalom Alloh taolo tomonidan yetkazgan barcha narsa haq-rostdir, deb qalbi bilan tasdiq va qabul qilsa hamda tili bilan shunga iqror bo‘lsagina imonli sanaladi. Ibadat va solih amallarning qabul bo‘lishi uchun imon shartdir⁴[4].

NATIJALAR. Iшонch – bu insonning atrof-muhitga va voqelikka munosabatini belgilaydigan tushuncha, bilim, illyuziya, g‘oya hisoblanadi.

Iшонch va e’tiqod inson ongiga xos o‘ziga xos o‘lchov bo‘lib, uni inson bo‘lish, yashashning yagona daxlsiz ichki tamoyiliga aylantiradi. Bunday ishonch biror narsaga sodiqlik holati bo‘lib, u shaxsdagi ijtimoiy mafkuraning ifodasini ifodalagani uchun uni mafkuraviy ishonch, ya’ni e’tiqod so‘zi bilan ham umumlashtirish mumkin. Iшонch – insonning irodasi, his-tuyg‘ulari va tasavvurlari jihatidan o‘ziga xos birligi; ko‘zlangan maqsad yo‘lida ochiq va erkin, shaffoflikka erishishdir. Shuningdek, ishonch bu yerda qalb va tana qudratining to‘liqligidan, uning insoniy fazilatlar jihatidan birligidan tug‘ilgan ijodiy matonat, sofdillik, jiddiylik, ehtiyotkorlik sifatida ham namoyon bo‘ladi. Iшонch – botiniy nurning

uyg‘onishi; shaxsning o‘ziga xos his-tuyg‘ulari, irodasi, aql-idroki va harakatlari murakkab, o‘zaro bog‘liq va yuksak ma’naviy uyg‘unlikka erishish demakdir.

XULOSA. Shuning uchun ham imon so‘zi e’tiqod so‘zi bilan yonma-yon kelib, imon-e’tiqod tarzida ishlatiladi. Imon inson ongi va ruhiyatiga singgan, undan mustahkam o‘rin olgan dunyoqarash sifatida qudratli harakatlantiruvchi kuch, inson irodasini mustahkamlash vositasidir. Imon tufayli odam ruhi ezgulik sari intiladi, ijtimoiy-siyosiy hayotning insoniylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, har qanday g‘oya va dunyoqarash insonning imon-e’tiqodiga aylangandagina harakatlantiruvchi moddiy hamda ruhiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Umuminsoniy axloqiy qadriyatlar – so‘z bilan ish (amal), til va dil birligi, insof, diyonat, halollik-poklik, vijdonlilik, sadoqat, muhabbat, vatanparvarlik, shuningdek, oila, jamiyat, xalq va butun insoniyat oldidagi burchni anglash kabi fazilatlar imonlilik shartlari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ан-Наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: 2003. 552-бет.
2. Тафаккур гулшани: Ватанимиз ва хорижий муаллифларнинг афоризмлари ва хикматли сўзлари/Вл. Воронцов композицияси; Ш.Абдураззокова тарж. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б. 126.
3. Абдурахим Эркаев. Маънавият ва тараққиёт. –Тошкент: Маънавият, 2009. –Б. 22.
4. <https://islom.uz/imon/1>
5. Эронов, С.К. (2023). Фан ва дин муносабатларида ишонч-этикод муаммосининг намоён бўлиши. *Academic research in educational sciences*, 4(6), 394-403.
6. Эронов, С. К. (2020). Мировоззренческая культура молодежи: гуманистический аспект. *Academy*, (3), 57-59.
7. Kurbannazarovich, E.S. (2020). Специфика проявления феномена доверия в современном обществе. *Philosophy and life international journal*, (4).
8. Курбанбаева, М. (2023). Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров. *Tamaddun nuri jurnali*, 5(44), 95-96.

⁴ <https://islom.uz/imon/1>